

**YUMSHOQ TO‘QIMA O‘SMALARI DIAGNOSTIKASIDA ULTRATOVUSH
TEKSHIRUVINING AHAMIYATI VA ROLI****Nazarbayev Jamshid Bahramovich**

Toshkent Tibbiyot Universiteti Tibbiy radiologiya yo‘nalishi 3-kurs magistranti.

Xojibekova Yulduz Maratovna

Ilmiy rahbar. Pr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19047509>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yumshoq to‘qima o‘smalarini aniqlash va ularni differensial diagnostika qilishda ultratovush tekshiruvining diagnostik ahamiyati tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida yumshoq to‘qima o‘smalari aniqlangan 74 nafar bemorning klinik va ultrasonografik ma‘lumotlari o‘rganildi. Bemorlarning 52 tasida malign, 24 tasida esa benign o‘smalar aniqlangan.

Barcha bemorlarda ultratovush tekshiruvi B-rejim, rangli doppler kartirovkasi hamda energetik doppler rejimlarida amalga oshirildi. Tekshiruv jarayonida o‘smalarning lokalizatsiyasi, o‘lchami, shakli, konturlarining aniqligi, echogenligi, echostrukturasi hamda vaskulyarizatsiya darajasi baholandi.

Tadqiqot natijalari benign o‘smalar odatda aniq konturlar, nisbatan bir xil echostruktura va past darajadagi vaskulyarizatsiya bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi. Malign o‘smalarda esa notekis shakl, noaniq konturlar, geterogen exostruktura hamda kuchli intratumoral vaskulyarizatsiya kuzatildi.

Shunga qaramay, ayrim holatlarda benign va malign o‘smalar echografik belgilarining o‘xshashligi ultratovush tekshiruvining diagnostik aniqligini cheklashi mumkin. Tadqiqot natijalari ultratovush tekshiruvining yumshoq to‘qima o‘smalarini birlamchi diagnostikasida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Biroq yakuniy tashxisni tasdiqlash uchun morfologik tekshiruv zarur hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Gipoexogen, Vaskulyarizatsiya, Morfologik, Benign, Malign, akustik soya, sezgirlik, spetsifiklik, Geterogen, chiziqli datchik.

Kirish

Yumshoq to‘qima o‘smalari turli to‘qimalardan rivojlanadigan neoplazmalar guruhini tashkil etadi. Ular mushak, yog‘, biriktiruvchi to‘qima, qon tomirlari va nerv elementlaridan kelib chiqishi mumkin.

Ushbu o‘smalar yaxshi sifatli (benign) yoki yomon sifatli (malign) bo‘lishi mumkin bo‘lib, klinik kechishi, prognozi hamda davolash taktikasi jihatidan sezilarli darajada farqlanadi.

Shuning uchun ularni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri baholash tibbiy diagnostikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda yumshoq to‘qima o‘smalarini aniqlashda bir qator instrumental usullar qo‘llaniladi. Ulardan eng keng tarqalganlaridan biri ultratovush tekshiruvi hisoblanadi. Ushbu usulning asosiy afzalliklari uning invaziv emasligi, keng qo‘llanish imkoniyati, iqtisodiy jihatdan qulayligi hamda tekshiruvni real vaqt rejimida o‘tkazish imkoniyatiga ega ekanligidir.

Ultratovush tekshiruvi yordamida o‘smalarning anatomik joylashuvi, o‘lchami, shakli, ichki tuzilishi va qon bilan ta‘minlanish darajasi haqida muhim ma‘lumot olish mumkin. Shu sababli ultrasonografiya yumshoq to‘qima o‘smalarini birlamchi diagnostikasida muhim o‘rin egallaydi.

Tadqiqot maqsadi

Yumshoq to'qima o'smalari va ularning tabiatini aniqlashda ultratovush tekshiruvining diagnostik imkoniyatlarini tahlil qilish.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida yumshoq to'qima o'smalari aniqlangan 76 nafar bemor tekshirildi.

Bemorlarning barchasida ultratovush tekshiruvi o'tkazilib, keyinchalik tashxis morfologik tekshiruv yordamida tasdiqlandi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra bemorlar ikki guruhga ajratildi:

52 nafar bemorda malign o'smalar aniqlangan

24 nafar bemorda benign o'smalar aniqlangan

Ultratovush tekshiruvlari zamonaviy diagnostik apparat yordamida amalga oshirildi.

Tekshiruv jarayonida 5–12 MHz chastotali chiziqli va konveks datchiklardan foydalanildi.

Tekshiruv quyidagi rejimlarda bajarildi:

B-rejim (kulrang shkala tasviri)

rangli doppler kartirovkasi

energetik doppler

O'smalarni baholash jarayonida quyidagi diagnostik ko'rsatkichlar tahlil qilindi:

- o'smaning joylashuvi
- o'lchami va hajmi
- shakli
- chuqurlik darajasi
- konturlarining aniqligi
- exogenlik darajasi
- exostruktura xususiyatlari
- atrof to'qimalarning holati
- kalsifikatlar mavjudligi
- suyak destruksiyasi belgilari
- regional limfa tugunlari holati

Doppler rejimlari yordamida o'smalarning qon bilan ta'minlanish darajasi ham baholandi.

Vaskulyarizatsiya quyidagi darajalarga bo'lindi:

I daraja — doppler signallar aniqlanmaydi

II daraja — periferik tomirlar aniqlanadi

III daraja — o'sma ichida 1–3 ta tomir aniqlanadi

IV daraja — o'sma ichida ko'plab tomir signallari kuzatiladi

Ultratovush tasvirlari tahlil qilinib, o'smaning ehtimoliy tabiati haqida xulosa chiqarildi.

Yakuniy tashxis esa gistologik tekshiruv natijalariga asoslandi.

Yomon sifatli	a6c	%	Yaxshi sifatli	a6c	%
Fibrosarkoma	22	42	Ateroma	1	4,54
Yumaloq xujayrali sarkoma	4	7.7	Limfangioma	6	27,24
Angiosarkoma	2	3.8	Fibrolipoma	2	9,09
Rabdomiosarkoma	3	5.7	Limfangioendotelioma	1	4,54
Liposarkoma	7	13.4	Miksoma	2	9,09

Sinovial sarkoma	8	15.4	Neyrofibromatoz	2	9,09
Polimorf xujayrali sarkoma	4	7.7	Desmoid xosila	1	4,54
Miksosakoma	2	3.8	Sinovioma	2	4,54
			Fibrozo angiomasiz xosila	1	4,54
			Lipoma	3	9,09
			Gemangioma	1	4,54
			Mezenxioma	2	9,09
UMUMIY	52	100%	UMUMIY	24	100%

Ultratovush tekshiruvlari natijalari shuni ko'rsatdiki, benign va malign yumshoq to'qima o'smalari ma'lum exografik xususiyatlarga ega.

Benign o'smalar odatda kichikroq o'lchamli bo'lib, aniq va silliq konturlar bilan tavsiflanadi. Ularning shakli ko'pincha oval yoki dumaloq bo'ladi. Exostrukturali odatda bir xil bo'lib, doppler tekshiruvda qon tomir signallari kam aniqlanadi yoki umuman kuzatilmaydi.

Masalan, lipoma ultratovush tekshiruvda ko'pincha teri osti to'qimasida joylashgan oval shaklli o'sma sifatida aniqlanadi.

Uning exogenligi turlicha bo'lishi mumkin, ammo ko'pincha giperexogen yoki izoexogen ko'rinishda kuzatiladi. Doppler tekshiruvda esa vaskulyarizatsiya deyarli aniqlanmaydi.

Fibromalar ham ultratovush tekshiruvda nisbatan bir xil tuzilishga ega bo'lgan o'smalar sifatida ko'rinadi. Ularning konturlari aniq bo'lib, doppler rejimida kam miqdordagi periferik tomir signallari aniqlanishi mumkin.

Malign o'smalar esa ultratovush tekshiruvda bir qator farqlovchi belgilar bilan namoyon bo'ladi. Ular ko'pincha katta o'lchamli, chuqur joylashgan hamda notekis shaklga ega bo'ladi.

Konturlari noaniq yoki uzilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Bunday o'smalarning exostrukturali ko'pincha geterogen bo'lib, turli exogenlikdagi zonalar navbatma-navbat joylashgan bo'ladi. Ayrim hollarda o'sma ichida nekroz o'choqlari ham aniqlanishi mumkin.

Doppler tekshiruv esa malign o'smalarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday o'smalarda o'sma ichida ko'plab qon tomirlari aniqlanadi va ularning joylashuvi tartibsiz bo'ladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari ultratovush tekshiruvining yumshoq to'qima o'smalarini aniqlashda muhim diagnostik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu usul yordamida o'smalarning tuzilishi va qon bilan ta'minlanish darajasi haqida muhim ma'lumot olish mumkin.

Shu bilan birga ayrim holatlarda benign va malign o'smalarning ultratovush belgilarida o'xshashlik kuzatilishi mumkin.

Masalan, ayrim lipomalar geterogen exostrukturali ega bo'lishi mumkin. Aksincha, ayrim sarkomalar esa nisbatan bir xil tuzilishga ega bo'lib ko'rinishi mumkin.

Shu sababli ultratovush tekshiruv natijalarini klinik ma'lumotlar va boshqa instrumental tekshiruvlar bilan birgalikda baholash zarur.

Xulosa

Ultratovush tekshiruv yumshoq to'qima o'smalarini diagnostika qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu usul yordamida o'smalarning joylashuvi, o'lchami, ichki tuzilishi hamda vaskulyarizatsiyasi haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin.

74 nafar bemorda o'tkazilgan tadqiqot natijalari ultrasonografiya benign va malign o'smalar o'rtasidagi ayrim farqlovchi belgilarni aniqlash imkonini berishini ko'rsatdi.

Shu bilan birga ultratovush tekshiruvi yakuniy tashxis qo'yish uchun yetarli emas.

Ko'pgina hollarda tashxisni tasdiqlash uchun qo'shimcha instrumental tekshiruvlar hamda gistologik tahlil talab etiladi.

Shunday qilib, ultratovush tekshiruvi yumshoq to'qima o'smalarini aniqlash va baholashda muhim diagnostik usul bo'lib, klinik amaliyotda keng qo'llanilishi lozim.